

O'zbekiston Respublikasi. Farg'ona davlat universiteti professori

R.Y.Xoliqov.

**Republic of Uzbekistan. R.Y.Khalikov, professor of Fergana State
University.**

**GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI VA UNING FARG'ONA VODIYSIGA
TA'SIRI.**

**GLOBAL CLIMATE CHANGE AND ITS IMPACT ON FERGANA
VALLEY.**

Anatatsiya: Maqolada global iqlim o'zgarishining farg'ona vodiysiga ta'siri, iqlimiy anamaliyalar va ularning oqibatlarini masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Global muammolar, iqlimiy anamaliyalar, maksimal va minimal harorat, yog'ishlar rejimi, regional qonuniyatlar, meteorologik omillar.

Abstract: The article discusses the impact of global climate change on the Fergana Valley, climatic anomalies and their consequences.

Keywords: Global problems, climatic anomalies, maximum and minimum movements, precipitation regime, regional patterns, meteorological factors.

Аннотация: В статье рассматривается влияние глобального изменения климата на Ферганскую долину, климатические аномалии и их последствия.

Ключевые слова: Глобальные проблемы, климатические аномалии, максимальное и минимальное температура, режим осадков, региональные закономерности, метеорологические факторы.

Kirish. Dunyo miqiyosida XIX asr oxiri XX asr boshlaridan havo haroratining ortishi bilan bog'liq bo'lgan iqlim o'zgarishlariga asosiy sabab inson xo'jalik faoliyatining ta'siri deb e'tirof etilmoqda.

1750-1800 yillardan boshlab shu kungacha qadar yer shari iqlimi o'rtacha 0,8-1,2°C ko'tarilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra XXI asr davomida haroratning ko'tarilishi 0,3-1,7°C ni tashkil etgan.

Meteorologlarning kuzatishlariga ko'ra 2023 yilning yozi 1850 yildan buyon eng issiq oy bo'lgan. Yillik o'rtacha harorat sanoatlashuvigacha bo'lgan davrga nisbatan $1,48^{\circ}\text{C}$ ga ortgan[1].

Global iqlimiy o'zgarishning salbiy oqibatlari dunyo okeani sathining ko'tarilishi yog'inlar miqdoridagi regional o'zgarishlar, ekstremal haroratlarning ro'y berishi, anamal issiqliklar va sovuqliklarning sodir bo'lib turishi, yil fasllari o'rtasidagi kalendari chegarasining keskin o'zgarishida, ekosistemalarning biologik mahsuldorligini o'zgarishida nomoyon bo'lmoqda.

Global iqlim isishiga sabab bo'lgan muhim omillar sifatida atmosferadagi suv bug'lari miqdorining ortishi (36-70%) issiqxona samarasini beradi. Karbonat anhidrid gazi (9-26%) ni, metan (4-9%) ni, ozon (3-7%) ni tashkil etadi. Yuqoridagi issiqxona samarasini beruvchi gazlarning ajratuvchi qismi esa inson xo'jalik faoliyati bilan bog'liqdir.

Respublikamiz, xususan farg'ona vodiysida ham iqlim o'zgarishi regional ko'lamda sodir bo'lib, bunga hududiy omillar bilan birgalikda xo'jalik omillarining ta'siri katta bo'lib landshaftlarga jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqmoqda. Global iqlim o'zgarishi va uni landshaftlarga ta'siri masalalari bilan M.N.Budiko, A.A.Velichko, A.A.Grigoriev, N.N.Ivanov, I.I.Mamay kabi ko'plab olimlar shug'ullanganlar. Ilmiy Tadqiqot obyektimiz bo'lgan Farg'ona vodiysiga ham keying yillarga global iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri tobora ortib bormoqda. Bu esa vodiyning hududiy joylashuvi, orografiyasi, aholining zichligi, sanoat korxonalarining ko'pligi bilan bog'liqdir.

Farg'ona vodiysining iqlimiga doir ma'lumotlar tahlil qilinganda global iqlim o'zgarishi davrida havoning harorati, yog'inlar miqdori va uning yillik, shuningdek ko'p yillik rejimida jiddiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. O'rganilgan ma'lumotlar Farg'ona vodiysida iqlimning butun vodiylar hududida isishi yoki sovushi tendensiyasi haqidagi ma'lum to'xtamga kelish uchun asos bo'la olmaydi va bizningcha XX asrning birinchi choragida ro'y berayotgan iqlimiy anamaliyalarning davriy holatini ko'rsatib beradi.

Farg‘ona va shohimardon meteostansiyalarida 1970-2011 yillarda olib borilgan kuzatishlarga ko‘ra atmosfera yog‘iqlari yiliga 0,47% va 0,74% o‘shishni tashkil etgan. Jumladan, qishki yog‘inlar Farg‘ona metrostansiyasida yiliga 0,15% ni Shohimardonda 0,39% ni tashkil etgan va bu holatda yozgi yog‘inlarning o‘shish miqdori qishki yog‘inlarga nisbatan ko‘proq bo‘lgan. Qo‘qon shahari va unga yaqin bo‘lgan hududlarda so‘ngi o‘n yillikda havo haroratining ortishi mazkur hududlar atmosfera havosiga chang miqdorining me‘yorga nisbatan 1,86% ga oshganligi bilan bog‘liq. [2.50-53].

Global iqlim o‘zgarishi va uni tadqiq etish bo‘yicha xalqaro tadqiqot markazlarining modellariga ko‘ra ham respublikamiz hududi va jumladan Farg‘ona vodiysida ham iqlim isishining elementlari ko‘zga tashlanadi. Kanada (CCCM), CFDL AQSH (GLSS), va Britaniya (UKMO) iqlim markazlari ma‘lumotlariga ko‘ra global isish davrida iqlimning ko‘p yillik isishi 5,2% ga yetadi. AQSH geografik-gidrodinamik laboratoriyasi va Goddart kosmik tadqiqot institute (CFDL, GLSS) modellari bo‘yicha respublikamizda yillik havo harorati o‘rtacha 2,9% va 1‘2o Cni tashkil etadi. Bu ko‘rsatgich esa 1951-1980 yillardagi ko‘rsatgichga tog‘ri keladi. Bundar holatda respublikamiz hududida sovuqsiz kunlar miqdori 15 kungacha ko‘payishi, beqaror vegetatsion hududida yuzaga kelishi mumkin. 1961-1990 yillarda Respublikamizning deyarli barcha hududlarida shuningdek Farg‘ona vodiysidagi tekislik tog‘ va tog‘oldi hududlarida ham yog‘in miqdorining ortishi qayd etilgan.

O‘rganilgan ma‘lumotlarga ko‘ra 1971-2000 yillarda Pop meteostansiyasidan tashqari boshqa barcha meteostansiyalarda havoning yillik o‘rtacha harorati biroz ko‘tarilgan. Qo‘qon meteorologik stansiyasida noyabr, fevral oylaridan tashqari barcha oylarga 1971-2000 yillarda pasayish kuzatilgan. Shuningdek maksimal oylik havo harorati Qo‘qon va Andijonda 0,1—1C atrofida pasayish kuzatilgan. [2.50-53].

O‘rtacha yillik minimal haroratlar ko‘rsatgichlari har bir meteorologik stansiyalarda ko‘tarilgan.

Farg‘ona vodiysining hududiy joylashuvi redefining kontrastlilik holatidan kelib chiqib, global iqlim isishining yog‘inlar miqdoriga ta’siri ham bir xil emasligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan. 1891-1990 yillarga nisbatan 1971-2000 yillarda yillik yog‘in miqdoridagi farq Farg‘ona vodiysida -0,6mm ga pasaygan.

Xulosa. Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysi hududida global iqlim isishi regional qonuniyatlarga emas balki, mahalliy omillarga qarab o‘zgarib bormoqda. Iqlimiy anamaliyalar sharoitida yil fasllari o‘rtasidagi chegarani faqat calendar orqali shartli aniqlashimiz mumkin.

Iqlimiylik anamaliyalar o‘z navbatida Farg‘ona vodiysining turli landshaftlariga sezilarli ta’sirini o‘tkazmoqda. Ayniqsa madaniy landshaftlarga biologik mahsuldorlik bahorgi yog‘inlar va haroratning pasayishi sharoitida salbiy holatlarni ya’ni uning kamayib ketishiga ham olib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

BBC NEWS. Русская служба. Электронная версия. [https|| www. bbc. com>](https://www.bbc.com/avarticles) avarticles. 2024.

2. Xoliqov R.Y. Farg‘ona vodiysi.monografiya T: “Navro‘z” nashroyoti 2020-168 bet

3. Saydaliyeva L. M. FORMATION OF MEDICAL GEOGRAPHICAL ENVIRONMENT IN FERGANA REGION //Ethiopian International Journal of

4.Saydaliyeva, L. M. "FORMATION OF MEDICAL GEOGRAPHICAL ENVIRONMENT IN FERGANA REGION." *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research* 10.11 (2023): 366-369.